| Qozog'iston sug'urta bozori tahlili | 906 |
| Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich, Djalilova Malika Shuxratovna | |
| Tashqi savdoni tashkil etish va tartibga solishda merkantilistlar g'oyalaring tutgan o'rni | 911 |
| Turayev Nurbek Muxammadovich | |
| Актуальные вопросы обеспечения экологической безопасности..... | 919 |
| Исройлов Боходир Ибрагимович, Хасанов Ойбек Марданович | |



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING INSTITUTSIONAL VA HUQUQIY ASOSLARI

Xudoyberdiyev Jamshid Juraboy o'g'li

"Sambhram universiteti" NTM katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Bugungi kunda institutsiional yo'nalish iqtisodiyotni davlat tomonidan ijtimoiy nazorat qilish muqarrar ekanligini ko'rsatdi va davlat tomonidan faol ijtimoiy tizimni tartibga solish konsepsiyasini yaratishga asos bo'ldi. Ularning asosiy e'tibori nafaqat aholi jon boshiga daromadlarni oshirish, balki mutlaq va nisbiy kambag'allikni bartaraf etish, tengsizlikni kamaytirish, aholi bandligini oshirish, mehnat resurslari va umuman inson kapitali sifatini oshirishga e'tibor qaratdi.

Kalit so'zlar: Kambag'allikning iqtisodiy- ijtimoiy oqibatlari, Ijtimoiy reyestr, institutsiunal mexanizmlar, inson kapitali.

Abstract: Today, the institutional direction has shown that social control of the economy by the state is inevitable and has become the basis for the creation of the concept of regulation of the active social system by the state. Their main focus was not only on increasing per capita income, but also on eliminating absolute and relative poverty, reducing inequality, increasing employment, increasing the quality of labor resources and human capital in general.

Key words: Economic and social consequences of poverty, Social register, institutional mechanisms, human capital.

Аннотация: Сегодня институциональное направление показало, что социальный контроль над экономикой со стороны государства неизбежен, и стало основой создания концепции регулирования активной социальной системы со стороны государства. Их основной упор был сделан не только на увеличение доходов на душу населения, но и на ликвидацию абсолютной и относительной бедности, сокращение неравенства, увеличение занятости, повышение качества трудовых ресурсов и человеческого капитала в целом.

Ключевые слова: Экономические и социальные последствия бедности, Социальный регистр, институциональные механизмы, человеческий капитал.

KIRISH

Iqtisodiyotda institutsiunal mexanizmlar barqaror iqtisodiy o'sishga ta'sir ko'rsatib, nafaqat yaqin balki uzoq istiqbolda ham iqtisodiy o'sishga shart-sharoitlar yaratib beradi. Institutsiunal mexanizmlarning rivojlanishi bilan bog'liq vazifalar barqaror iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantiruvchi vositalarni takomillashtirishga imkoniyat yaratib beradi.

Sh.M. Mirziyoyev o'z nutqlarida kambag'allik haqida "bugun mamlakatimizda kambag'allikni qisqartirish sohasida amalga oshirilayotgan ishlar bu boradagi dastlabki qadamlar hisoblanadi. Bu borada ijtimoiy, iqtisodiy, ma'rifiy-madaniy sohalarning hamkorlikdagi faoliyati hamda amalga oshirilayotgan ishlarning shaffofligini ta'minlash masalasi ham muhim ahamiyat kasb etadi" deb keltirib o'tgan^[1].

Olimlarning fikricha, O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish yo'lida banklarga institutsiunal sar moyadorlarning, ya'ni o'z ish faoliyatining xususiyatiga ko'ra doimiy va katta miqdordagi pul mablag'lariiga ega bo'lgan hamda ularni qimmatli qog'ozlar portfeliga qo'yilma qilishga ruxsat berilgan. Banklar institutsiunal sar moyadorlarining aksiyalarini sotib olib, pul mablag'larini jamg'arish uchun qo'shimcha imkoniyaga ega bo'ladi. Shuningdek, mijozlarning qimmatli qog'ozlar portfelini boshqarish bo'yicha o'z operatsiyalarini kengaytiradi. Banklar xususiyashtirilayotgan va qayta tashkil etilayotgan korxonalarining qimmatli qog'ozlarini katta hajmda investitsiya qilishga qodir bo'lgan yirik institutsional tizim hisoblanadi^[2].



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy tadqiqotimizning maqsadi mamlakatimizda mehnatga layoqatli aholining ish joyi bilan bandligini ta'minlash orqali kambag'allikni qisqartirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Maqolada kamabag'allikni qisqartirishda institutsional va huquqiy omillarni ochib berishga harakat qilindi. Muammolarni yoritib berishda, qiyosiy, tarkibiy, analitik va statistik ma'lumotlar tahlilidan foydalanildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

S.M. Ahsan kambag'allik tushunchasini mamlakatda keng o'rganish siyosat nuqtayi nazaridan muhimdir. Agar yuqori o'sish daromad kambag'alligini maqbul marjaga kamaytirishiga amin bo'lgan bo'lsa ham, katta o'sishni ta'minlash uchun taklif qilishi mumkin bo'lgan aniq siyosat choralarini kam ko'rindi. Bundan tashqari, bugungi kunga qadar yempirik dalillarning mintaqaning o'tish iqtisodiyotiga asoslanmagan bo'lsa, kambag'allikni kamaytirish amaliy natijalari yetarli bo'lmaydi. Kambag'allikni qisqartirish elementlari sog'liqni saqlash, sanitariya, savodxonlik va sohalarda mikrokreditlar boshqa davlat va xususiy korxonalarni rivojlantirish elementlari davlat tomonidan imtiyozlar ajratilgan holda ta'minlanishi lozim deb keltiradi [3].

I.Appiah-Otoo kambag'allik bugungi kunda insoniyat oldida turgan katta qiyinchiliklardan biri bo'lib qolmoqda va kambag'allikni yo'q qilish rivojlanayotgan mamlakatlar oldida uzoq muddatli rivojlanish yo'lidagi qiyin vazifalardan biriga aylandi. Shunga ko'ra, mamlakatlar namunasi uchun moliya-kambag'allik aloqasida institutsional sifatning (qonun ustuvorligi, tartibga solish sifati, korrupsiyanı nazorat qilish, hukumat samaradorligi, siyosiy barqarorlik va ovoz va javobgarlik bilan o'chanadi) o'rtacha rolini baholash orqali tahlil qilgan [4].

A.G. Karimov yaqin kelajakda pandemiya keltirib chiqaradigan iqtisodiy oqibatlar tufayli kambag'allik muammosi yanada yomonlashishi aniq. Va bu vaziyatda kambag'allikning oldini olish va kamaytirishga qaratilgan samarali vositalar va mexanizmlarni ishlab chiqish va qo'llash alohida ahamiyatga ega deb ko'rsatadi [5].

A. Korchak va Ye. Korchaklar kambag'allik mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy hayotining hodisasi sifatida aholining qabul qilib bo'lmaydigan darajada past turmush darajasidan iborat bo'lib, bu mintaqadagi yashash sharoitlarining o'ziga xos xususiyatlari tufayli ijtimoiy maqbul darajaga to'g'ri kelmaydigan turi sifatida va bu borada davlat kambag'allikni qisqartirishda amaliy ahamiyat kasb etishi borasida o'z fikrlarini ko'rsatganlar [6].

L.S.Shaxovskaya va K.O.Klimkovalar kambag'allikni institutsionalizatsiya qilish muammosi ilmiy jamoatchilikning e'tiborini kun sayin tortib bormoqda. Mamlakatning kambag'al aholisi tarkibiga nafaqat obyektiv ravishda eng zaif guruuhlar (nafaqaxo'rlar, nogironlar, "to'liq bo'Imagan" va "katta" oilalar a'zolari, ta'lim darajasi past odamlar), balki iqtisodiy faol aholining muhim qismi, oliy ma'lumotli odamlar ham kiradi ya'ni oliy ma'lumotlilar ham kambag'allikkha uchrashi mumkinligini ta'kidlaydilar [7].

A.N. Meliboyev kambag'allikni qisqartirish, insonlar yashash darajasini va hayot farovonligini oshirish har bir davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida ushbu masalalar davlat miqyosida amalga oshirilishi loziim bo'lgan amaliy vazifalardan biri sifatida va xalqaro tashkilotlarning kun tartibida aks ettiriladigan asosiy masalalardan biri bo'lishi lozimligi haqida to'xtalib o'tgan [8].

A. Bekmurodov kambag'allik – ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida iqqisodiy rivojlanish jarayonida moddiy va nomoddiy imtiyozlardan foydalanish hamda daromadlarni taqsimlashdagi tengsizlikning oqibati sifatida izohlaydi. Kambag'allikni qisqartirishning to'g'ri va eng samarali usuli iqtisodiyotda band aholi sonini oshirish, ularga munosib va mehnat unumdonligi yuqori bo'lgan to'liq ish bilan band bo'lishni ta'minlash, qishloq joylarida tadbirkorlik uchun shart-sharoitlar yaratishdan iborat deb hisoblaydi [9].

TAHLIL VA NATIJALAR

Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida bank tizimini rivojlantirishni takomillashtirishga asos bo'luvchi bir qator o'zgarishlarni amalga oshirish belgilangan, jumladan, 2023-yildan boshlab qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 12 foizgacha, shuningdek bank va moliya yo'nalishlarida foya solig'i stavkasi esa 15 foizgacha tushirilishi rejalashtirilgan. Mamlakatimiz hududlarida iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlari bo'lgan sanoat va infratuzilmani rivojlantirish maqsadida "Taraqqiyot banki"ni tashkil etish nazarda tutilgan. Mazkur vazifaning ijrosini amalga oshirishda Xalqaro moliya institutlari bilan o'zaro kelishuvlarga asoslanishi va xalqaro tajribalarni keng o'rganish nazarda tutiladi [10].

Taraqqiyot strategiyasida "Bank tizimini transformatsiya qilishni yakunlash, xususiy banklarning ulushini 2025-yilda jami bank aktivlarining 60 foiziga yetkazish" ko'zda tutilgan bo'lib, bunda [10]:

- "Asakabank"ni xorijiy ekspertlarni jalb qilgan holda transformatsiya qilish va xususiylashtirish dasturini ishlab chiqish va tasdiqlash (2022-yil, iyul oyigacha);
- "Xalq banki", "Biznesni rivojlantirish banki" "Mikrokreditbank", "Agro bank", "O'zmilliyybank"ning aksiyalarini 2023-yilga qadar fond birjasi orqali ommaviy joylashtirish "yo'l xarita"larini ishlab chiqish va tasdiqlash (2022-yil avgust oyigacha) ko'zda tutilgan.



Bank sohasidagi tizimli islohotlarda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilangan:

- moliyaviy barqarorlik bo'yicha Xalqaro valyuta jamg'armasi tomonidan aynan moliyaviy barqarorlik bo'yicha ekspert nazoratini qo'llash;
- har yili tizimdagi moliyaviy barqarorlik sharhini muntazam chop etib borish;
- iqtisodiyotda Xalqaro valyuta jamg'armasi ko'magida vujudga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni aniqlash, ularning bank tizimi barqarorligiga ta'sirini baholashga qaratilgan stress-test modellarini ishlab chiqish va amaliyotda qo'llash.

Har bir insonga kunlik zarur bo'ladijan eng kam miqdordagi ta'minotning yetishmasligi zamonaviy dunyo davlatlari taraqqiyoti uchun boshqa xavflardan kam bo'lмаган – kambag'allik xavfini keltirib chiqarmoqda. Zero, buning zamirida shaxs, jamiyat va davlatning bugungi va ertangi kuni, barqaror taraqqiyotning asoslar mujassam. Shu bilan birga, kambag'allikni bartaraf etish, buning uchun zarur shart-sharoit va imkoniyatlarni yaratish amalda mamlakat taraqqiyotining yangi bosqichga o'tishini ta'minlaydi. Ayni vaqtida, kambag'allikka qarshi kurashish uzoq va murakkab jarayon bo'lib, u institutsional va tizimli yondashuvni taqozo etadi.

Dunyoda BMTning ma'lumotlariga ko'ra, Yer yuzida 700 mln. dan ortiq odam kambag'allikda kun kechiradi. Kambag'allikning yuqori darajasi asosan turli nizolar mavjud bo'lgan mamlakatlarga to'g'ri keladi. Kambag'allik va kambag'allikka qarshi kurashish BMT kun tartibidagi asosiy masalalardan hisoblanadi. Bu borada tashkilot tomonidan bir qator muhim ishlar amalga oshirilgan.

Shuningdek, O'zbekistonda 2030-yilgacha kambag'allikni qisqartirish bo'yicha strategiya O'zbekistonda kambag'allikka qarshi kurashish sohasida institutsional va tizimli yondashuv qo'llanayotganini bildiradi. BMT va Jahon banki bilan birlashtirilgan "2021-2030-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasida kambag'allikni qisqartirish strategiyasi" [11] qabul qilindi. Mazkur strtegiyada mamlakatimizda kambag'allikni qisqartirish uchun har tomonlama kompleks yondashuv amalga oshirilib, unda quyidagi ustuvor yo'nalishlar doirasida chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutilgan:

- ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarga ko'rsatiladigan moddiy yordamlar, xizmatlarni kengaytirish hamda sifatini yaxshilash orqali mavjud tizimni takomillashtirish;
- ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamini ijtimoiy muhofaza qilishning yangi usul va mexanizmlarini doimiy takomillashtirib borish orqali kambag'allik darajasini yanada qisqartirish mexanizmlarini joriy etish.

O'zbekiston Respublikasida kambag'allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish maqsadida quyidagi bir qator ustuvor vazifalar belgilangan:

1. Jahon banki va Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot dasturi, singari qator xalqaro tashkilotlar tavsiyasi bilan bilan birlashtirilgan "O'zbekiston Respublikasida 2030-yilgacha kambag'allikni qisqartirish strategiyasi" loyihasi tayyorlanadi.
2. "Aholining minimal iste'mol xarajatlari qiymati" ishlab chiqilib, bu aholi orasida kambag'allikni qisqartirish borasida ularning asosiy ehtiyojlarini kafolatli ta'minlash bo'yicha kompleks tadbirlarni o'z ichiga oladi. Unga ko'ra, aholining muhtoj kambag'al qatlamiga kreditlar, ijtimoiy nafaqa yoki uy-joy ajratilishi, ta'lim, sog'liqni saqlash, kasb-hunarga o'qitish, ichimlik suvi, energiya va yo'l infratuzilmasi bilan bog'liq muammolarni hal etishni nazarda tutadi.
3. Har bir mahallalardagi ijtimoiy-iqtisodiy holatni "xonardonbay" asosida o'rganish, shuningdek, aholining ish bilan bandlik darajasini, oilalarning daromad manbalarini, tomorqa yerlaridan foydalanish holatini hamda daromadli mehnatga bo'lgan intilishi va ehtiyojlarini tahlil qilish orqali manzilli ishslash tizimi yaratiladi.
4. "Ijtimoiy reyestr"da "Temir daftar"dagи barcha ma'lumotlar qamrab olinib, ehtiyojmand oilalarga 250 dan ziyod ijtimoiy xizmatlar elektron shaklda ko'rsatiladi.
5. Ijtimoiy kafolatlarni bir tizimga keltirib, ularni minimal me'yorlar darajasida bosqichma-bosqich ta'minlash bo'yicha dastur ishlab chiqiladi.
6. Hududlarning mavjud salohiyatini kambag'allikni qisqartirish uchun safarbar etish yo'llari ishlab chiqiladi, jumladan:
 - hududlardagi mavjud maxsus industrial zonalardagi loyihalarni amalga oshirishga to'sqinlik qilayotgan muammolarni bartaraf etish choralar ko'rildi;
 - ehtiyojmand aholini kambag'allikdan chiqarish bo'yicha motivatsiya, ko'nikma va moliyaviy ko'mak tamoyili asosida har bir tuman va shahar bo'yicha alohida dasturlar ishlab chiqiladi.
7. Yoshlar va xotin-qizlarni kasb-hunarga o'rgatish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash orqali ularning ish bilan bandligini ta'minlash va doimiy daromad manbaini yaratishning yangi mexanizmini amaliyotga joriy etish va boshqa chora-tadbirlar belgilangan.

Mamlakatimizda aholi orasida kambag'allikni qisqartirish va turmush darajasini takomillashtirishga qaratilgan huquqiy-me'yoriy hujjatlar quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.



1-jadval: O'zbekiston Respublikasida kambag'allikni qisqartirishning huquqiy asoslari va turmush darajasini takomillashtirishga qaratilgan huquqiy-me'yoriy hujjatlar [12]

| | |
|--|--|
| O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-martdag'i 5975-son Farmoni | "Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to'g'risida" |
| O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-sentyabrdagi 3268-son qarori | "Aholining kam ta'minlangan qatlamlarini qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora – tadbirlar to'g'risida" |
| O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-martdag'i 5975-son Farmoni | "Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to'g'risida" |
| O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-martdag'i 4653-son qaror | "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi hamda uning tizim tashkilotlari faoliyatini tubdan takomillashtirish to'g'risida" |
| O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 4-avgustdag'i 4797-son qaror | "Ahолига давлат ижтимои хизматлари ва ўордам тақдим этиш тартиб-таомилларини автоматлаштириш бо'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" |
| O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 5-martdag'i 122-son qaror | "Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish hamda sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" |
| O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 11-avgustdag'i 4804-son qaror | "Kambag'al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jaib qilish, ularning mehnat faolligini oshirish va kasb-hunarga o'qitishga qaratilgan hamda aholi bandligini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" |
| O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 20-apreldagi 6208-son Farmon | "Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va bandligiga ko'maklashish, ularni ijtimoiy himoya qilish hamda bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" |
| O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktyabrdagi 4862-son qarori | "Aholini tadbirkorlikka jaib qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" |
| O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-fevral 77-son qarori | "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi faoliyatini samarali tashkil etish to'g'risida" |
| O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyun, PF-82-son Farmoni | "Ahолига сифатли ijtimoiy xizmat va ўордам ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida" |
| O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-iyun, 93-son Farmoni | "Kambag'allikni qisqartirishda tadbirkorlik subyektlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlik o'rnatishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida" |

Kambag'allikning iqtisodiy oqibatlari:

- talab va taklif qisqarishi natijasida YAIM o'sish sur'atining pasayishi, inflyatsiya va ishsizlik darajasining oshib borishiga ta'sir ko'rsatadi;
- iqtisodiy inqiroz va iqtisodiy qaramlik tufayli budget daromadlari kamayishi, tashqi qarz hajmining oshishi;
- xalqaro reytingda mamlakatning o'rnnini pasayishi natijasida investorlar va investitsiya kirishini pasaytirishi mumkin.

Shuningdek, kambag'allikning ijtimoiy oqibatlari:

- sifatlari sog'liqni saqlash tizimining rivojlanmasligi sababli umr ko'rish darajasining qisqarishi va inson salohiyatining pasayishi;
- jinoyatchilik darajasining oshishi va alkogolizm, giyohvandlik;
- aholi orasida boqimandalik va norozilik kayfiyatining yuzaga kelishi va boshqalar.

Mamlakatmizda kambag'allikni qisqartirish yo'nalishi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan bo'lib, uning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarining olidini olish uchun uni qisqartirishning ta'sirchan vositalarini amaliyatga joriy etish, uni hisoblashning mezon va usullarini hamda uzoq muddatga mo'ljallangan strategiyasini ishlab chiqish kabi qator vazifalar belgilab berilgan.



Bizning fikrimizcha, iqtisodiy o'sishning inklyuzivligini ta'minlash, davlat boshqaruvi organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, jamoat tashkilotlari hamda xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari bilan hamkorlikda kambag'allik darajasini aniqlash mezonlari va baholash uslubiyatini aniqlash, kambag'allikni qisqartirish bo'yicha, kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur:

- hududlarda kambag'allikni qisqartirishning aniq dastak va mexanizmlarini ishlab chiqish tadbiq etish orqali tarkibiy o'zgarishlarni qo'llab-quvvatlash;
- ishlab chiqarish va moliyaviy resurslarni samarali taksimlash asosida iqtisodiy rivojlanishning konseptual yo'nalishlari vazifalarini ishlab chiqish va amalga oshirilishini ta'minlash;
- inson kapitalini rivojlantirish bo'yicha ta'lif tizimini takomillashtirish va mehnat bozorini malakali mutaxassislar bilan ta'minlashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish;
- kambag'allik va daromadlarning tabaqalashuvini keltirib chikaruvchi omillarni aniqlash, daromadlar o'sishini va xarid kobiliyatini oshirishni ta'minlash;
- aholi daromadlari tabaqalashuvini o'rganish bo'yicha tizimli ishlarni olib borish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. – B. 440-441.
2. Adilov A. Milliy iqtisodiyotda tijorat banklarining institutsional investor sifatida rolini oshirish / Abbas Adilov. Tekst: neposredstvenniy // Molodoy ucheniy. 2020. № 21 (311). - S. 790-792. - URL: <https://moluch.ru/archive/311/70343/>
3. Ahsan S. M. Institutional Framework and Poverty: A Transition Economy Perspective //Available at SSRN 288948. – 2001.
4. Appiah-Otoo I. et al. Financial development, institutional improvement, poverty reduction: the multiple challenges in West Africa //Journal of Policy Modeling. – 2022. – T. 44. – №. 6. – С. 1296-1312.
5. Каримов А. Г. Институциональные аспекты сокращения бедности работающего населения //Инновационные технологии управления социальноэкономическим развитием регионов России: Материалы XII Всероссийской научно-практической конференции с международным участием. Уфа. – 2020. – С. 48.
6. Корчак Анатолий Данилович, Корчак Елена Анатольевна Несовершенство институциональных механизмов, продуцирующее бедность населения на Севере России // Вестник КГУ. 2006. №11. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/nesovershenstvo-institutsionalnyh-mehanizmov-produtsiruyuschee-bednost-naseleniya-na-severe-rossii>
7. Шаховская Л.С., Климкова К.О. Институционализация бедности в России: можно ли остановить этот процесс? // Национальные интересы: приоритеты и безопасность. 2016. №3 (336). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/institutsionalizatsiya-bednosti-v-rossii-mozhno-li-ostanovit-etot-protsess>.
8. Meliboyev A. N. Yangi O'zbekistonda kambag'allikni qisqaritish orqali farovon jamiyat qurish istiqbollari va yo'nalishlari // Conference on Universal Science Research 2023". – 2023. – Т. 1. – №. 2. – S. 200-203.
9. Бекмуродов А. и др. Социально-экономическое значение бедности и пути ее снижения: передовой зарубежный опыт и национальная практика //in Library. – 2022. – Т. 22. – №. 2. – С. 3-13.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisiga Murojaatnomasi // "Xalq so'zi" gazetasi, 2023-yil yanvar, № 19 (7521).
11. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi
12. Ma'lumotlar asosida muallif ishlanmasi
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisiga Murojaatnomasi // "Xalq so'zi" gazetasi, 2023-yil yanvar, № 19 (7521).
14. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti: Nazariya va amaliyot. Darslik/Qayta ishlangan va to'ldirilgan 3-nashri. – T.:O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "FAN" nashriyoti davlat korxonasi, 2019. – 592 b.
15. Агабекян Р. Л., Баяндурян Г. Л. Институциональная экономика. Бизнес и занятость; Магистр - Москва, 2013. - 464 с.

Yashil

IQTISODIYOT
va
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №5666955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oly ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oly attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.